

## TOG'LI USTRUSHONA TOG' KONCHILIGI YOZMA MANBALARDA YORILISHI

Aqbutayev Jumart Abdumo'minovich

JDPU, Ijtimoiy-gumanitar

fanlar o'qitish metodikasi (tarix)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada insoniyatning ilk temirchilik sohasiga asos solishi hamda Ustrushonanining tog'li hududlaridagi tog'-konchilik sohasi haqida yozma manbalarda yoritilgan xususida muallif fikr va mulohazalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustrushona, Kichik Osiyo, Janubiy Turkmaniston, Farg'ona, metallurgiya, Damashq, Marsmand, Mink.

Konchilik ishlab chiqarishining rivoji ibtidoiy xo'jalik ehtiyojlari tosh davridayoq odamlarni chaqmoq tosh va boshqa toshlardan ham yaxshiroq bo'lgan xom-ashyo qidirib topishga undagan bo'lishi tabiiy edi. Dunyo xalqlari dastlabki metall buyumlardan mezolitning oxirlarida va ilk neolit davrlarda kishilik jamiyati hayotiga kerib kelganligi ma'lum. Kichik Osiyoning mil. av. 8 ming yillikning oxiri va 7 ming yilliklarning boshlariga oid Chatal Xyuyuk va Cheynyuk tepasi yodgorliklaridan dastlabki metall buyumlarining topib o'rganilishi fikrimiz dalilidir[1, 34-36-b.].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, insoniyatning mis bilan tanishishi tosh davridayoq boshlangan edi. Lekin kishilarga misning turli tosh turlaridan farqli xususiyatlarini o'zlashtirish uchun bir necha yuz yillar zarur bo'ldi. O'zlariga kerakli mehnat qurollarini yasash uchun yaroqli va mustahkam toshlarni qidirish jarayonida ibtidoiy ajdodlarimiz yerning yuza qismlarida joylashgan mis konlariga duch kelgan bo'lishi tabiiy. Asta-sekinlik bilan bu yangi xom-ashyoning xususiyatlari o'zlashtirildi va uning olov ta'sirida o'z xususiyatini o'zgartirishi, turli shakllarga kirishi kashf qilindi. Keyinchalik mis eritilib, undan turli mehnat qurollari va harbiy qurol-yarog'lar yasala boshlandi. Bu jarayon takomillashib, O'rta Osiyo xududida ko'plab mis konlari ochilishiga va ular atrofida metall eritish ustaxonalari paydo bo'lishiga olib keldi.

O'rta Osiyo hududida, xususan, Janubiy Turkmanistonda mil. av. III ming yillik oxiriga kelib yangi metall birikmasi-jez (bronza)dan tayyorlangan mehnat qurollari paydo bo'ldi [2, c. 11]. Mis va qalay yoki mis va qo'rg'oshin

birikmasidan paydo bo'lgan bu yangi metall mehnat qurollari, ov va harbiy sohada foydalaniladigan qurol-yarog'lar turining kengayishiga olib keldi.

Qadimgi ajdodlarimiz mis metallurgiyasidan foydalana boshlagach, konchilik ishlab chiqarishi taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. Aynan shu davrda odamlar mis bilan birga boshqa metallarni, xususan, qalay, kumush, oltinni ham kashf qildilar. Bu jarayon O'rta Osiyoda konchilik rivojidadagi muhim bosqich bo'lib, jamiyat taraqqiyotining yanada rivojlanishi, xususan, ibtidoiy jamoa tuzimi o'rnida sinfiy jamiyattning qaror topayotganligidan dalolat berar edi.

Ma'lumki, ibtidoiy odamlar misning juda yaxshi xususiyati-cho'ziluvchanligini kashf qilgan bo'lsalar-da, bu metall qadimgi qabilalarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta o'zgarishlar kiritma olmagan. Ammo bronzani kashf etish (90% mis va 10% qalay) ijtimoiy-iqtisodiy hayotda olg'a qarab tashlangan qadam bo'ldi. Chunki bronza o'z xususiyatlari jihatidan misdan ancha ustun turadi. U misga qaraganda tez eriydi, unchalik mo'rt ham emas, misdan ko'ra ancha qattiq ham. Shuning uchun bronzadan yasalgan qurollar mis qurollarga qaraganda pishiq va chidamli bo'lgan. O'rta Osiyoda bronza davri mil. av. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi [3, 15-b]. Xususan ayrim materiallarning paydo bo'lishi va ularda ijtimoiy hayotdan keng foydalanish jamiyat taraqqiyotida keskin burilish yasadi. Bu jarayon dehqonchilik madaniyati taraqqiyotining chuqurlashuvi va xududining kengayishi, ishlab chiqarish munosabatlarining ixtisoslashishi va shu kabi omillar bilan tavsiflanadiki, bu o'z navbatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim burilish davrini belgilab berdi. Natijada ilk shaharlar va davlatchilikning dastlabki kurtaklari namayon bo'la boshladi.

O'zbekiston va Germaniya qo'shma ekspeditsiyalari davomida katta qiziqishga sabab bo'lgan xudud bu Markaziy Qizilqum bo'ldi. Qumliklar orasidagi, Aumingzatovdan sharqda, 1 km. kv. maydonda 8 ta mis eritish punktlari va Lavlakon ko'li hududida esa 10 ta eritish punktlari aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Lavlakon xududidagi punktda shu yerdagi ma'danli eritilgan va keyinchalik boshqa xududlardan ham xom-ashyo olib kelinib eritilgan. Beshbuloq xududida yana 8 ta konchilar punkti topilgan bo'lib, tadqiqotlarga ko'ra, ularda kimyoviy jihatdan toza bo'lgan mis eritilgan.

Metallurgiyaning eng katta punktlari Yetimtovdan g'arbroqda aniqlangan. Bu hududdan janubiy-g'arbiy yo'nalishda eniga 1,5-2 km va uzunasiga 10 km bo'lgan maydonda ma'danni eritish jaryonida ajratilgan qotishmalar borligi

aniqlandi. Shuningdek bu yerda ma'dan qazib olish joylari va mehnat qurollari topilgan [4, 29-b].

O'zbekistonning turli hududlarida yarim metall va nometall qazilma boyliklardan foydalanish keng rivojlandi. Olingan qazilma boyliklar mahalliy hunarmandlar ehtiyojini qoplashdan tashqari muhim strategik xom ashyo sifatida chet mamlakatlarga ham eksport qilinardi. Bu davrda Qarnab, Uchqo'rg'on, Chirchiq-Ohangaron vohasi, Ugam daryosi yuqori oqimi, Nurota tog'laridan va boshqa hududlardan turli ma'danlar, metallar qazib olingani ma'lum.

Arab manbalarida Ustrushona hududida temir ma'danlari qazib olinganligi to'g'risida ma'lumotlar daqqatga sazovordir. O'rta asrlar konlarining o'rni Jizzax tumani xududidagi bir necha joylarda aniqlangan. Temir ma'danni konlari manbalarga ko'ra Mink tog' hududlarida tarqalgan. Manbalarda keltirilishicha Farg'onaga temir mahsuloti Ustrushonadan keltirilib, bu yerda temir va po'latdan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ulardan harbiy-qurol aslahalar, qlich va shamshirlar ishlanib, sifatli bilan Xuroson, Iroq va Bog'dod bozorlarida xaridi chaqqon bo'lgan. Farg'onaning o'zida ham bir necha ma'dan konlari mavjud bo'lgan. Muallifi noma'lum bo'lgan «Xududi Olam» asarida Farg'onada magnitli temirtoshlar mavjudligi keltirib o'tiladi. Geologlarning ma'lumotlariga ko'ra Isfaxonda temir rudalari mavjud. O'rta asrlar davriga oid temir konlari Chotqol-Qurama tog'larining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. Temir ma'danlari konlarga yaqin bo'lgan joylarda eritib olingan konlar yaqinida manzilgohlardan biridan 30 kg og'irlikdagi toshqol topilgan [5, 29].

O'rta asrlar Ustrushonasi haqida nisbatan to'liq ma'lumotlarni IX-X asrlar va undan keyingi davrlarda yashagan arab va fors tilli mualliflar asarlaridan olishimiz mumkin. Bu mualliflardan at-Tabariy, al-Balazuriy va qisman al-Asir asarlarida, asosan, O'rta asrlar Ustrushonasining siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar beriladi. At-Tabariy, asosan, Ustrushonaning siyosiy tarixi haqida ma'lumotlar beradi. Bu, jumladan, ustrushonaliklarning arab bosqini va islom diniga qarshi olib borgan kurashi, Ustrushona afshinlari shajarasi haqida qimmatli fikrlar bildiradi [6, c. 44-45]. Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida ham Ustrushonaning siyosiy tarixi, xususan, xalifaning mashhur lashkarboshilaridan biri bo'lib yetishgan afshin Haydarning Bobek qo'zg'oloniga qarshi olib borgan kurashi o'z aksini topgan.

Al-Istaxri, ibn-Xavqal, al-Muqaddasiy, qisman, Yaqut Xamoviy asarlaridan Ustrushonaning tarixiy-geografik joylashuv o'rni, iqtisodiy va qisman ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Jumladan, al-Istaxriy Ustrushonaning tarixiy - geografik joylashuv o'rni haqida quyidagi

ma'lumotlarni beradi - «Ustrushona - Sug'd kabi, viloyat nomi. U yerda (Ustrushonada) bu nomdagi na shahar va na qishloq bor. Ustrushona ko'proq tog'liklardan iborat. Uning g'arbiy tomoni Samarqand chegaralari, shimoli Choch va Farg'onaning bir qismi, janubda esa Kesh, Sag'oniyon, Shumon, Vashjird va Rosht, sharqiy tomoni Farg'onaning ba'zi chegaralari bilan tutashgan» [7, c. 18-26].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozma manbalarda tog' Ustrushona konchiligiga oid adabiyotlarda bu o'lka tarixi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Yozma manbalar, jumladan, tarixiy ma'lumotlar, sayohatnomalar, etnografik tadqiqotlar tog' Ustrushona xalqining konchilik ishlari, ijtimoiy tashkiloti va diniy e'tiqodlarini yoritib beradi. Bu manbalar mintaqadagi konchilikning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini, mustamlakachilik va globallashuv kabi tashqi kuchlarning mahalliy jamoalarga ta'sirini ham ochib beradi. Umuman olganda, yozma manbalarda tog' Ustrushona konchiligiga oid adabiyotlar ushbu mintaqa tarixi va madaniyati bilan qiziquvchi olim va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi hamda Markaziy Osiyoning boy va rang-barang madaniy merosini yoritadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Масон В.М. Первые цивилизации. Л., 1989.
2. Лордкипанидзе Л.Н. История геологического изучения Узбекистана.-Т., 2001.
3. Темиров/Д.,Одинаев З.Б.Қадимги давр...,
4. Буряков Ю.Ф.Металлургическая база древней государственности Согда и Хорезма // Сўғд Марказия Осиёнинг мадания алоқалар тизимида мавзусидаги конференция тезислари.-Самарқанд.1999.
5. Буряков Ю.Ф. Металлургическая база древней государственности Согда и Хорезма. 1999.
6. Негматов. Н.Н. Уструшана в древности и ранне средневековья. – Сталинабад, 1957
7. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. I. -М.: Наука, 1973.